

Date: 29th May-2026

**K.G. YUNG “TUSH TAHLILI” MAQOLASI ASOSIDA ANTROPOLOGIK
MULOHAZALAR**

Qorako‘z To‘lanboyeva Muxtorjon qizi

TDSHU, Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Imycom41@gmail.com

+998948430823

Ilmiy rahbar: Jasur Sulaymonov Baxtiyorovich

PhD, dotsent, Sharq falsafasi va germeneytika kafedrası mudiri

Annotatsiya: Ushbu tezisda insonning o‘ziga xos jihatlarini ifodalovchi tush haqidagi masalas faylasuf K.G.Yung tahlili asosida muhokama etiladi hamda tushning psixik, falsafiy ahamiyati ko‘rib o‘tiladi. Psixoanaliz nazariyotchisi hisoblangan Z.Freyd yondashuvlari tadqiq etiladi, ilmiy-falsafiy mulohazalar beriladi.

Tayanch tushuncha va iboralar: inson, ong, tush, ongosti, psixoanaliz, G.Yung, Z.Freyd, latent, yashirin ma‘no, o‘tmish, xotira.

KIRISH

Inson ruhiyati va uning ramziy faoliyatini o‘rganish zamonaviy antropologiyani muhim yo‘nalishlaridan biridir. Tushlar esa mana shu o‘rganishlarning to‘la ochilmagan tarafidir. Inson nega tush ko‘radi? Ular bizga qanchalik bog‘langan? Tush ko‘rish jarayonida inson qaysi holatni boshidan kechiradi? Bu kabi savollar odatiy tushlarimizni xotirlatish bilan birga inson ichki xususiyatlarini ochishiga turtkidir. Karl Gustav Yungning “Tush tahlili” haqidagi qarashlari inson ongosti, arxetiplar va kollektiv ong masalalarini ifodalashda alohida ahamiyatga ega.

MUHOKAMA

Tushlar inson dunyoqarashidagi o‘zga olamdir. U ongosti jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, har bir odamning individualligini belgilab beradi. “Tadqiqotlarga ko‘ra, ongning asosiy xususiyatlari shundaki, u dunyoning shaxsiy tajribalariga ishora qiladi va har doim odam xabardor bo‘lgan ruhiy holatdir (Cherry, 2023; Van Gulick, 2022)”¹

Tushlarimiz bevosita bizning beshta sezgi a‘zolarimiz orqali olingan bilimlarni, xususan, vizual ravishda ko‘rganlarimizni tahlil natijasidir. Ko‘z orqali olingan ma‘lumotlarga ko‘proq asoslanadi. Bunga isbot sifatida aytish mumkinki, ko‘zi tug‘ma ko‘r bo‘lgan inson tush ko‘rmaydi. Hayoti davomida ko‘r bo‘lib qolgan inson ko‘rligining ilk davrlarida rangsiz tushlar ko‘radi va vaqt o‘tgani sayin o‘sha rangsiz tushlarni ham ko‘rmay qo‘yadi. Bu uning tashkiliy qismi desak, ichki sababiyati nimada ekanligi biroz murakkab hamda bahsli. Uni psixologiya olamida yetarlicha tatadqiq qilingan. Ayniqsa Z.Freydning izlanishlari bu masalani yangi bosqichga olib chiqdi. K.Yung ham Freydning tush haqidagi maqolasini sharhlash orqali o‘zining yondashuvlarini beradi.

¹ <https://share.google/AmndiDD9KtMtWRzDT>



Date: 29th May-2026



Tushlarni ko'pchilik nazaridagi tartibsiz va tasodifiy voqeliklardan iborat jarayon yoki uyqu holatimizdagi tanamiz sezimlari natijasi ekanligini inkor etib, uni maxsus psixo tuzilma tarzida baholaydi. Freydga ko'ra tushlar boshqa ruhiy jarayonlar singari yaratiq bo'lib, o'z motivlari va zanjirga ega voqelikdir. U ongostimizda kechuvchi ichki suhbat. U tushlarni mayllarga bog'laydi, ya'ni mantiqiy asosni o'zida mujassam etuvchi turli mayllarning ziddiyatli jarayonidir. Biz bajaradigan boshqa harakatlarimiz singari tushlar ham o'zining mohiyatiga ega. Xo'sh, buni qanday ifodalash mumkin? Anglashilgan jihat shuki, tushlar shunchaki tasodifan tanlab olingan kino tasmalari kabi emas, kadrlarda ongostidagi jonli hodisalarni o'zida jamlaydi. Boshqacha qilib aytganda, kodlarga solingan xabarnomadir. Ushbu ifodamiz xuddi fantastika haqida gapirayotgandek kayfiyat uyg'otadi, lekin tahlillar so'zlarimizga isbot bo'lmoqda. Umuman olganda, tushni izohlar ekanmiz, obyektiv moqomda bo'lish juda qiyin,

Tushdagi chalkashliklardan kelib chiqib, Freydga qarshi chiquvchi tomonlar ham mavjud. Sababi tushlarimiz ongimiz qabul qila oladigan tartibda bo'lmaganligi uchun aniq tasavvurni hosil qilmaydi. Freydning bunga javobi sifatida K.Yung quyidagicha keltiradi: "Freyd tushdagi bunday mujmal tasvirlarning ketma-ketligini tushning o'zini namoyon etishining o'ziga xos usulidir". Demak, tishlarda bir-birini uzviy davom ettirmaydigan hodisalar uning aloqa tilidir. Buni Freyd tushning latent holati deb ataydi. Latent – yashirin degan ma'noni anglatadi. Uning Psixoanaliz nazariyalarida tushlarni tushunish ongostidagi jarayonlarga yo'l ochadi. Chunki faylasuf tushni tashqi ko'rinishi bizga ma'lum bo'lib turgan bino tarzida ramzlaydi.

Freyd asosiy qo'ygan savoli bu ma'lum bir shaxs nimaga ko'ra tush ko'radi? Buni aniqlash ongostini anglashni eng yaqin yo'li. Agar tush ko'rish jarayoni parametrlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bir odam tush ko'rishi uchun ma'lum sabab ko'rsatilishi zarur, bu determenistik qonuniyat. Yana bir tarafdin, insonlarning yoshi, jinsi, ijtimoiy ahvoli, aqliy qobiliyati kabi omillar tushlardagi farqlarni yuzaga chiqaradi. Oddiy misol – o'rta yoshdagi odam o'smirlardek tush ko'rmaydi. Shuning uchun ham tushning psixologik xarakterini belgilab olish muhimdir.

Tushni psixologik jihatlarini bo'yicha tahlil etadigan bo'lsak, ularning ildizlari tush ko'ruvchining o'tmishiga borib taqaladi. Freydning uslubida o'tmish eng muhim xususiyatdir. Bizning barcha ruhiy holatlarimizni ildizlari o'tmishdagi xotira va voqeliklardan kelib chiqadigan jarayonlar yig'indisidir. Jumladan, tushning mazmuni ham o'tmish bilan aloqador. Har birimizning o'tmishimizda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ruhiy elementlar bo'ladi, ular tushlarimiz orqali ayni ruhiy holatimiz bilan aloqaga kirishadi. Aynan o'tmishdagi ruhiy kechinmalar ma'lum bir bog'lanishlar asosida xotiramizga, ongostimizga o'rnashadi. Chunki har bir jism yoki voqelikni bizga qanchalik hissiy ta'sir etishi bizda voqelikdan kelib chiqqan holda turli bo'lanishlarni hosil qiladi va xotiramizdan joy egallaydi. Uning qanchalik saqlanib qolishi bizga hissiy ta'sirning kuchiga bog'liq, qattiq ta'sirlantirgan biror narsa, hodisa bo'ladigan bo'lsa, ularning davomiyligi ham shunga muvofiq uzoq kechadi. K.Yung buni "g'oyalarning hissiyotga

Date: 29th May-2026

asoslangan majmuasi“ deb ta’riflaydi. “Faust” asaridagi Gretxen obrazi orqali uni kuylagan qo‘shig‘i yashirin ma’noda keltirilgani tushlardagi holatga qiyoslaydi.

Tushlarni mazmuni bizning ongimiz tan olmagan narsa va hissiyotlarga borib taqalishini ham izohlash mumkin. Bu, albatta, o‘tmishning ildizlaridan kelgan hodisalar. Inson ongi qabul qilmaydigan barcha narsa ongostiga siqib chiqariladi va natijada tushlar orqali bizga qayta signal jo‘natiladi. Ong o‘zi qabul qilmagan narsani bloklab qo‘ymasligi uchun tush ularni kodlaydi. Bu mayl va unga qarshilik ko‘rsatish munosabati namoyon bo‘luvchi jarayondir. Istaklarimizni ro‘yobga chiqara olmasak, ularni xayolotga ko‘chiramiz, u yerda barchasi biz xohlagandek sodir bo‘ladi.

Maqola so‘nggida K.Yungning o‘sha mashhur tush tabri borasida keltiriladi. Bu masala bahsli bo‘lsa-da, Yung o‘zining yondashuvlarini izohlab bergan. Tushni ta’bir qilish bizning muhokama mavjuyimizdan ancha kengdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Insoniyatning bugungi ahvoli: falsafiy-psixologik maqolalar / B. Rassel, A. Shopengauer, E. Fromm, Z. Freyd, J. Oruel, K.G. Yung. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024. – 176 b.
2. <https://share.google/AmndiDD9KtMtWRzDT>
3. <https://share.google/Sloug7hiE3OubK5UG>